

## TEKNOLOGIYA ASRIDA RESPUBLIKAMIZNING QO'G'IRCHOQ TEATRLARI VA TEATR QO'G'IRCHOQLARI ATROFIDAGI MULOHAZALAR

*Abdullayeva Ozodaxon*

*O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Instituti "Teatr Sana'ti" fakulteti*

*"Qo'g'irchoqlarni ishlab chiqarish texnologiyasi" I bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi zamonning qo'g'irchoq teatrlarimizga qo'yilayotgan talablari, teatr qo'g'irchoqlarini yasovchi usta-rassomning qanchalik muhimligi va bolalarning bugungi kun qo'g'irchoq teatrlariga nisbatan qarashlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Qo'g'irchoq teatri, teatr qo'g'irchoqlarini yasovchi usta-rassom, dramaturgiya, pyesa, texnologiya, spektakl.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются современные требования к нашим кукольным театрам, значение художника-кукольника изготавливающего театральные куклы, отношение детей к кукольным театрам сегодня.

**Ключевые слова:** кукольный театр, мастер-кукольник, драматургия, пьеса, технология, спектакль.

**Abstract.** This article discusses modern requirements for our puppet theaters, the importance of a puppet artist making theater puppets, the attitude of children to puppet theaters today.

**Key words:** puppet theatre, master puppeteer, dramaturgy, play, technology, performance.

*Bolalar uchun ham xuddi kattalar uchundek rol o'ynashingiz kerak,  
faqat undan ham yaxshiroq.*

*Konstantin Stanislavskiy*

O`zbek milliy akademik qo`girchoq teatri – bu bolalar uchun mo`ljallangan ertaknamo o`ziga xos jozibaga ega bo`lgan maddaniy hordiq maskanidir.

Ushbu maqolada ana shu maskan haqidagi subyektiv fikrlar asosida so`z boradi. Bugungi kunda televizor qarshisiga mixlab qo`ygan desney mutfilimlari bor ekan, biz farzandlarimizni qo`g`irchoq teatrlariga olib borishimiz ancha mushkul masala. Tan olib aytish kerakki bizning qo`g`irchoq teatrdagi qo`g`irchoqlarimiz dunyoviy va zamonaviy ko`plab talablarga javob bermasligi mumkin. Oddiylikka yo`g`rilgan etak qahramonlari bugunni bolasini alday olmaydi. Shunday ekan bugungi zamon bilan hamnafas yashash, bugunning talabiga javob berish Respublika qo`g`irchoq teatrlarining asosiy vaziflaridan bir bo`lib qolmoqda. Bu masalalar bo`yicha fikr mulohazalar Respublikka qo`girchoq teatrlarining XIII festivali yakunida bo`lib o`tgan muhokamada ham o`rtaga tashlandi. Olimlar, mutaxassislar va qo`g`irchoq ustalari tomonidan o`ziga xos fikrlar tinglandi. Bu muhokamada bir xillikdan qochish va zamonaviy asarlarga ham qo`l urush kerakligi, shuningdek, bugungi jadal tarzda rivojlanib borayotgan zamon talablariga mos, zamonaviy teatr qo`g`irchoqlarini yaratish lozim ekanligi aytib o`tildi.

Bugunning bolasiga qanday qo`g`irchoqlar maqul keladi? Ularni bizni qo`girchoq teatrlarimiz yaratib bera oladimi? Bu kabi savollar ijod ahli oldida ko`ndalang turibdi. Albatta, kamchiliklar va o`z ustimizda doimiy ish olib borib, rivojlanish-izlanishni to`xtatmas ekanmiz, bu savollar o`z yechimini vaqt davomida topa oladi deb umid qilamiz.

Fikrimcha, bugungi kun farzandlarimiz silliq, bejirim, chiroyli, rang-barang va o`ziga hos bo`lgan, noodatiy, takrorlanmas, harakatlari mutanosib bo`lgan qo`g`irchoqlarni ma`qul ko`rishadi. Chunki, ular texnologiya asri bolalari. Ya`ni, ular, smartfon, planshetlarda turli videolar, o`yinlar ko`rib ulg`ayishmoqda, va tabiiyki, bolalar uchun kompyuterda yaratilgan barcha rasm va videolar, barchasi

ranggo-rang va bir tekisdir. Shu o'rinda aytish kerakki, hatto oynai jahon ham hozirgi zamonaviy bolalarni hayratlantirmay qo'ydi. Shunday ekan, misol, televizor o'z qarshisida bir soatgina diqqatini olgan bolani, teatrdagi yarim soat olib o'tirishni o'zi bo'lmaydi. Bu ancha mehnat va mahorat talab etadi. Aktyor va aktrisalar mahorat bilan asarni bolaga yetkazib berishga harakat qilsayu, o'ynatayotgan qo'g'irchoqg'i shunga yarasha bo'lmasa, biz kutgan natijaga erisha olmaymiz. Aksincha, qo'g'irchoq sifatli va murakkab chiroyli va bejirim bo'lsayu ijro ustasi unga mos bo'lmasa ham yuqoridagi hol yuzaga keladi.

Xo'sh, bugungi teatr qo'g'irchoqlarimiz qanday ahvolda? Teatr qo'g'irchoqlari qaysi qo'g'irchoq turi bo'lishidan qat'iy nazar, o'zining murakkab talablariga albatta 100% javob berishi kerak. Festivalda davomida kuzatish mumkin ediki, ba'zi viloyat teatrlarining qo'g'irchoqlari boshi tanasiga nisbatan nomutanosib bo'lib qolgan. Bunday qo'g'irchoq, tabiiyki, ziyrak bolajonlar nigohidan chetta qolmaydi. Ular albatta bunday qo'g'irchoqlarni "muhokama" qilishadi. Bunday nomutanosiblik, kamchiliklarga sabab, qo'g'irchoq teatrlarimizda, aynan, "teatr qo'g'irchoqlarini yasovchi usta-rassom", ya'ni, shu soha bo'yicha ta'lim olgan mutaxassislarning yetishmasligida deb bilaman. Bu mutaxassislar qo'g'irchoq teatrlarimiz uchun nechog'lik muhimligi, bugun o'z isbotini topmoqda. Bunga yana bir sabab, havaskor ustalar tomonida tayorlangan qo'g'irchoqlar professional aktyorlarning ishlariga ham, ma'lum darajada qiyinchilik tug'dirmoqda. Shunday ekan, professional teatr qo'g'irchoqlarini yasash texnik ustalariga talab ortib bormoqda. "Bu yo'lda bir qancha ishlarni amalga oshirib boryapmiz, hattoki, yangi yo'nalish ham ochilgan" - deydi O'zbekiston san'at va madaniyat instituti "Qo'g'irchoq teatri san'ati" kafedrasini mudiri A'zamjon Abduhalilov o'z nutqida.

Ana endi, texnik imkoniyati yetarli bo'lgan teatr qo'g'irchoqlariga nazar solsak. bu teatrlarda dramaturgiyaga va pyesalariga kuchli e'tibor qaratiladi. Shu o'rinda mening fikrlarim; bir necha yillardan beri teatrdagi qo'yiladigan Alesher Navoyi

asarlar asosida tayorlangan pyesalar yetakchilik qilmoqda. Mana shu qatorga Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Gulxaniy asarlarini ham qo`sha olsak va bu asarlar asosida ham qiziqarli durdona pyesalar ishlanib spektakllar namoyish etilsa, qanday soz bo`lardi. Bu asarlarni o`qilishi birmuncha murakkabligi uchundir balki, bugunnining bolasi tugul kattalari ham bu asarlarni o`qishi amrimahol. Shunday ekan, ana shu yirik asarlarga ham qo`g`irchoqlar yaratilib, asar mazmuni o`zgarmagan hold avasodda ko`rinishda, serjilo tarzda yaratilib, bolajonlarga taqdim etilsa maqsadga muvofiq bo`lardi. Bu bilan biz, farzandlarimizga mumtoz adabiyotimizni san`at orqali, sodda tilda o`rgatgan bo`lar edik.

XXI asr – texnologiya asrining zamonaviy va ziyrak bolajonlari uchun, oddiy kitoblar ham rang-bararg suratlar va rasmlar bilan birga taqdim etiladi. Bu bilan bolani kitobga o`rgatish ancha osonlashib bormoqda. Qo`g`irchoq teatr sahnasida qo`yilayotgan spektaklar ham huddi shunday rasmlilik kitoblar kabi yorqin va kamalak ranglarga boyligi bilan bolalarni qo`g`irchoq teatriga tashrif buyurish ishtiyoqini oshirishga, sahnalashtirilayotgan spektakllar mazmun jihatdan turli tumanligi va kichik tomoshabinga estetik zavq bilan birga yangi bilim eshiklarini ochishi esa bolajonlar qo`g`irchoq teatriga navbatdagi tashriflarini intiq kutishga turtki bera oladi deb o`y layman.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov Muhsin. Xalq qo`g`irchoq teatri . (O`zbek an`anaviy qo`g`irchoq teatri), T., Adabiyot va san`at nashriyoti. 1972. 232 b.
2. А.Федотов. «ТЕХНИКА ТЕАТРА КУКОЛ». Издательство: Искусство ; Год издания - ; 204 стр .
3. «Истории драматургии театра кукол» / Б. П. Голдовский – «Автор», 2007. 29 стр.
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBg%CA%BBirchoq\\_teatri](https://uz.wikipedia.org/wiki/Qo%CA%BBg%CA%BBirchoq_teatri)

5. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_qo%CA%BBg%CA%BBirchoq\\_tetri](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_qo%CA%BBg%CA%BBirchoq_tetri)
6. <https://gomus.info/oz/encyclopedia/q/qogirchoq-teatri/>
7. <https://yuz.uz/uz/news/bolalik--dunyasida--ezgulik--uygotib-yoxud-qogirchoq-teatridan-katta-teatr-sari>
8. <https://zazerkalye.com/content/rol-teatra-kukol-v-vospitanii-i-razviti-detey>